

O'ZBEKISTON AHOLISINING MILLIY TARKIBI

Nazarov Didar Maxsat o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Sobirova Nodira Jumanazar qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu mazkur maqolada mamalatimizning aholisining soni, milliy tarkibi, tarixiy shakllanishi hamda hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada yurtimizda o'zbek millati ko'p millatli sharoitda tutgan o'rni, boshqa etnik guruhlar (tojik, qoraqolpoq, turkman, qozoq, rus va boshqa millat vakillari) ulushi va ijtimoiy munosabatlar doirasida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Ka'lit so'zlar: aholining milliy tarkibi, aholi soni, millat vakillari, aholining hududiy joylashuvi, tarixiy shakllanish.

Kirish. Odatda millat –nomi saqlanib qolgan elatning etning rivojlanish mahsulidir. Biroq, davlat chegaralaridagi o'zgarishlar tufayli ayrim elat negizida bir qancha etnik birliklar yuzaga kelgan. Ko'pgina mayda elatlar millatga aylanmasligi mumkin. Ular kam sonli bo'lganliklari tufayli, ayrim zamonaviy yo'nalishlarni mahalliy kadrlar bilan ta'minlay olmasdan, tarqqiyotdan orqada qoladilar. Vaqt o'tgach, bunday elatlar boshqa ancha rivojlangan elat yoki millat yoki elat aloqaga kirishadilar, ularning madaniyati va tilini o'zlashtiradilar va asta-sekin ular bilan qo'shib ketadilar.


Aholining milliy tarkibi nima? **Aholining milliy tarkibi** - muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi. Aholining milliy tarkibi haqidagi ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazish va statistik ro'yxat olib borish yo'li bilan aniqlanadi. Etnik statistika rivojlanmagan davlatlar, regionlarda esa aholining til birligiga, diniga qarab millatlarga, etnik guruhlariga ajratiladi.

ASOSIY QISM. Hozirda O'zbekistonda istiqomat qiladigan aholi soni 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra 37,5 milliondan ortiq kishini tashkil etadi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston aholisini aholisining umumiy soni bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan. 2024-yil 1-iyul ma'lumotlariga ko'ra shahar aholisi soni 18 940,4 ming kishi, qishloq aholisi soni esa 17 193,8 ming kishiga yetgan. Bundan ko'rinib turibdiki davlatimizning shaharlashuv darajasi 50 % dan ko'pdir. Qishloq aholisi soni esa urbanizatsiya va aholining shaharlarga intilishi natijasida kamayib bormoqda.

Bunda o'zbek millatining ulushi - 29,2 mln kishi, tojiklar - 1,7 mln, qozoqlar 821,2 ming kishi, qoraqalpoq - 752,7 ming kishi, rus - 720,3 ming kishi, qirg'iz - 291,6 ming kishi, turkman - 206,2 ming kishi, tatar - 187,3 ming kishi, koreys - 174,2 ming

kishi, ukrain - 67,9 ming kishi, ozar - 41,2 ming kishi, belarus - 18,5 ming kishi va boshqa millatlarning ulushi katta esa 426,4 ming kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni quyidagi diagrammada foiz hisobida ham ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. O'zbekiston aholisining milliy tarkibi foizda

Albatta bu millatlarning ulushi aholining soni ortgan sari ortishi mumkin, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli kamayish jarayoni ham kuzatilishi mumkin. Eslatib o'tish joyizki 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizning umumiy aholi soni 34,6 mln kishini tashkil etgan, hozir kunga kelib bu ko'rsatkich 3 mln kishiga ortgan. 1989 yildan 2021 yilga qadar o'zbek millatiga mansub aholi soni ikki baravardan ziyodga ko'payib, 29,2 mlndan oshgan.

Endi mamlakatimizda istiqomat qiladigan millat va illatlarning tarixiga nazar tashlasak. Yurtimizda istiqomat qiladigan millat va illatlarning umumiy soni 130 dan ortiqdir. Albatta O'zbekistonda ko'p millatli bo'lishining sabablaridan biri bu Buyuk Vatanchilik urushi (1941-1945-yillar) davriga borib taqaladi. Bu davrda rus, belarus, polyak va boshqa millatlar temir yo'l vagonlari orqali ko'chirib keltirilgan. O'zbek xalqi juda mehmondo'st va bag'rikeng xalq hisoblanib ushbu millat vakillarining bolalarini qiyinchilik sharoiti bo'lsada quchoq ochib o'z bolasidek qabul qilganlar.

Ikkinchi sabablaridan biri bu O'rta Osiyo xalqlarining ko'chmanchi tarzda yashab kelganligidir. Bunga yaqqol misol qilib qoraqolpoq, turkman millati vakillarini keltirishimiz mumkin.

O'zbek millatiga to'xtaladigan bo'lsak bu millat tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'zbek millati goh turklarga, qozoqlarga yoki bo'lmasa yevropaliklarga o'xshab ketadi. O'zbek millatining shakllanishi haqida turli ma'lumotlar va faktlar mavjud. Bu ma'lumotlarning ko'pchiligi bir-biriga zid va qarama – qarshi fikrlardir.

Tarixchi olim Ahmadali Asqarov o'zbek millatining tarqalishini antik davrga borib taqaydi. A. Asqarov o'z ilmiy ishlari natijasi ko'ra o'z xalqining shakllanishida ikkita xalqning qiyofasi bor deb yozadi. Bularning biri qadimiy eroniy, sug'diy, xorazmiy, baqtariy bo'lsa, ikkinchisi esa turkiy og'uzlardir.

Mamlakatimizda boshqa millatlarning o'rnashishiga tabiiy jarayonlar ham sababchi bo'lishi mumkin. Bunga yaqqol misol turkman xalqining Qoraqalpog'istonning janubiy qismlarida ko'pchilikni tashkil etishidir. Ma'lumotlarga ko'ra Xiva xoni Abdulg'ozi Bahodirxon tomonidan Amudaryoning eski irmog'i bo'lgan hamda Kaspiy deneziga borib quyilgan Uzboyning to'silishi va daryo yo'nalishining Orol dengiziga tomon o'zgarishidir. Shundan keyin turkmanlar istiqomat qiladigan Eski Urganch va boshqa hududlarda qurg'oqchilik boshlanib, ularning xon tomonidan Qoraqalpog'iston hududiga ko'chirilishi bo'lgan. Hozir kunda ushbu millat vakillarining ko'pchiligi ayniqsa To'rtko'l tumanida istiqomat qiladi.

Millatlar tarqalishining hududiy georafik xususiyatlarga to'xtaladigan bo'lsak o'zbek millati vakillari yurtimizning barcha go'shalarida keng tarqalgan va davlatimizning asosiy millat vakilidir.

Tojik millati ko'proq istiqomat qiladigan va tarqalgan hududlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hamda Buxoro viloyatlari hisoblanadi. Ayniqsa Surxondaryo viloyatining Muzrabot, Denov, Boysun hududlarida va Samarqand viloyatining Urgut, Bulung'ur hududlarida hamda Qashqadaryo viloyatining to'gli hududlarida millat vakillarining ulushi sezilarli katta.

Qoraqalpoq millati vakillari esa mamlakatimizning Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatlarida ko'pchilikni tashkil etadi. Qazoq millati vakillari esa Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahri va Qozog'iston davlat chegaralariga tutash bo'lgan hududlarda, Xorazm, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari salmog'i katta. Qirg'iz millati vakillari esa ko'proq Farg'ona vodiysi hududlarida istiqomat qilishadi. Hattoki yahudiy millati vakillari ham mamlakatimizda ulushi katta bo'lib, ularning ko'pchiligi Buxoro viloyati hududlarida istiqomat qilishadi. Bu esa yutimiz ko'p millatli ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA. Maqolada O'zbekiston aholisining umumiy soni to'g'risida statistik ma'lumotlarni yillar kesimida keltirib o'tdik. Umumiy aholi sonida millat vakillarining qancha aholini tashkil etishi va ularni ulushi foizlarda keltirildi. Albatta millatlarning shakllanishi bir qancha tabiiy, tarixiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillarga borib taqaladi. Maqolada yana millatlar hududiy joylashuv xususiyatlari hamda ularning qayerlarida ko'pchilikni tashkil etishi yuzasidan ma'lumotlar keltirildi va tahlil qilindi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.N. Tojiyeva. Aholi geografiyasi darslik Toshkent "Noshir" 2019.
2. Z.N. Tojiyeva. Aholi geografiyasi darslik Toshkent "Innovatsiyo-Ziyo" 2020.

3. Z.N. Tojiyeva. Aholi geografiyasi. – Toshkent. : “Fan va texnologiya”, 2019. 368 bet.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/19/population/>
5. <https://demografiya.uz/uz/wiki/aholining-milliy-tarkibi/>
6. <https://kun.uz/news/2023/03/11/ozbek-xalqining-kelib-chiqishi-ilk-ozbeklarning-korinishi-qanday-bolgan>
7. <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-a%D2%B3olisi-tarkibida-k-aysi-millat-vakillari-kupligi-ochik-landi-44514>

